

Bosh kelishuv shartnomasi № _____
(Kredit ajratish va bank kafolati taqdim qilish bo'yicha)

yil
(tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Kreditor/Kafil" deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi _____ bir tarafdin va (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi/Prinsipal» deb yuritiluvchi) _____ ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Mazkur shartnomaga muvofiq kreditor/kafil qarz oluvchi/prinsipalga 36 oy muddatga kredit va/yoki bank kafolati taqdim qilish uchun liniya ochish majburiyatini, qarz oluvchi esa liniya miqdoridan kelib chiqib, bank kredit siyosati talablari doirasida ta'minot bilan ta'minlash, liniya bo'yicha olinishi nazarda tutilgan kredit va/yoki bank kafolatlari alohida shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda qaytarish, ular bo'yicha hisoblangan foizlar, bank xizmat haqini to'lash, shuningdek, alohida shartnomaga asosan yuzaga keladigan boshqa to'lovlar to'lash, majburiyatlarni bajaradi va huquqlardan foydalanadi.

1.2 Mazkur shartnomaga asosan qarz oluvchi-prinsipal shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan miqdorgacha, aylanma mablag'larini to'ldirishi uchun kredit va paxta tolasi sotib olishi uchun bank kafolati olishi mumkin yoki bir vaqtin o'zida jami qiymati ko'rsatilgan miqdordan ortmagan miqdorda kredit va/yoki bank kafolati olishi mumkin.

1.3 Ajratiladigan kredit va bank kafolatlari mazkur shartnomaga asosan qiymatidan kelib chiqib, liniya doirasida har birini muddati 12 oydan oshmagan alohida kredit shartnoma va bank kafolati shartnomasi tuzish orqali taqdim qilinadi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1 Shartnomaga asosan liniya miqdori _____ mablag'lari hisobidan _____ tashkil qiladi.

2.2 Har bir beriladigan kredit va/yoki bank kafolati miqdori va bahosi alohida shartnomaga asosan belgilanadi.

3. TASDIQLASH VA KAFOLATLAR BERISH

3.1 Qarz oluvchi/prinsipal yuridik shaxs – tadbirkorlik subyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro'yxatdan o'tkazilgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga ega.

3.2 Qarz oluvchi/prinsipal kreditor/kafilga ariza, bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes-reja, davlat soliq inspeksiyasiga oxirgi hisobot davri uchun

buxgalteriya balans (1-son shakl), moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl), debitorlik-kreditorlik qarzdorliklari to'g'risida ma'lumotnoma, kredit va kafolat ta'minoti turlariga oid va zarur boshqa hujjatlarni taqdim etadi xamda taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riligini kafolatlaydi.

3.3 Shartnoma tuzayotgan vaqtda, qarz oluvchi/prinsipal xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarning to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emas.

3.4 Tasdiqlash va kafolatlar berish bo'limiga, qarz oluvchi/prinsipal to'liq amal qilishi lozim. Ushbu bo'limga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda kreditor/kafil qarz oluvchi/prinsipalga kredit berish/kafolat taqdim etishdan bosh tortishga haqli.

3.5 Qarz oluvchi/prinsipal bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XIII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili _____, telefon raqami: _____ (vakilning uyali aloqa raqami).

3.6 Kreditor/kafil bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XIII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

4. QARZ OLUVCHI/PRINSIPALNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

4.1 Qarz oluvchi/Prinsipal quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1 shartnomada belgilangan shartlar asosida kredit va/yoki bank kafolati taqdim qilishni talab qilish;

4.1.2 qarz oluvchi/prinsipal garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlashga haqli;

4.1.3 kredit va/yoki kafolatga ehtiyoj paydo bo'lganda ochilgan liniya limitiga mos miqdorda foydalanish;

4.1.4 olingan kredit va kafolatni muddatidan ilgari qisman yoki to'liq alohida shartnoma shartlariga mos ravishda qaytarish;

4.1.5 qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kreditning qolgan asosiy tani uchun qayta yangi grafik shakllantirishni talab qilish. Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

4.1.6 liniya doirasida majburiyatlari to'g'risida yoki boshqa olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni "Kreditor/Kafil" dan olish;

4.1.7 amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi;

4.1.8 shartnoma tuzilgandan so'ng qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar uchun kredit mablag'lari o'tkazilmagan bo'lsa, qarz oluvchining yozma murojaati bilan bepul asosda shartnoma bekor qilinishi mumkin;

4.1.9 qarz oluvchi kreditorni oldindan xabardor qilgan holda kreditni to'lagigicha yoki bir qismini to'lashga haqli. Bunda kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

4.2 Qarz oluvchi/Prinsipalning majburiyatlari:

4.2.1 Qarz oluvchi/prinsipal mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan majburiyatlarini qoplash uchun quyidagicha ta'minotlarni taqdim qiladi:

4.2.2 Kredit va/yoki kafolatning maqsadli ishlatilishini ta'minlaydi;

4.2.3 Majburiyatlari bo'yicha monitoringi va qarz oluvchining to'lovga layoqatlilik tahlilini amalga oshirishi uchun har chorakda o'z moliyaviy hisobotlari, jumladan buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni tegishli izohlari bilan va debitorlik-kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar holati talqinini haqqoniy hujjatlar asosida kreditor/kafilga taqdim qilib boradi;

4.2.4 Bank xodimlarining qarz oluvchi/prinsipal manziliga chiqishi orqali buxgalteriya hisobining yuritilishi, kreditning maqsadli ishlatilishini hamda mulk monitoringini amalga oshirishiga sharoit yaratib beradi;

4.2.5 Kredit va/yoki bank kafolati summasining bir yuz yigirma besh foizidan kam bo'lmagan qiymatdagi likvidli bo'lgan ta'minot turlarini taqdim qiladi. Kreditor tomonidan monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko'ra qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan ta'minot kredit majburiyatlarini qoplashga yetarli emas, deb topilgan taqdirda, yetarlicha miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim qiladi hamda uni tegishli tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

4.2.6 O'zining mulkchilik yoki egalik (tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, ta'sischilar, boshqaruv organlaridagi tarkibiy o'zgartirishlar va boshqalar) shakli o'zgarishi, qayta tashkil etilishi yoki faoliyatining to'xtatilishi xaqida kreditor/kafilni 10 kun avval yozma ravishda xabardor qiladi;

4.2.7 O'zining pochta va elektron manzili, telefonlari va boshqa rekvizitlari o'zgaradigan taqdirda bu haqda kreditor/kafilni kamida 1 (bir) kun ichida yozma ravishda xabardor qilish;

4.2.8 Mazkur shartnoma hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarini bajaradi.

4.2.9 Qarz oluvchi/Prinsipal o'z mablag'lari (kapitali) kamayishiga olib keladigan operatsiyalarni (dividend to'lash, ustav kapitalini kamaytirish va boshqalar) bankning tegishli roziligini olgandan so'nggina amalga oshiradi.

5. KREDITOR/KAFILNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1 Kreditor/kafil quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1 mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun qarz oluvchi/prinsipal tomonidan kredit siyosati talablari doirasida ta'minot taqdim qilinib, hujjatlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, bankka taqdim qilinmaguniga qadar, liniya doirasida kredit ajratish va bank kafolati taqdim qilish uchun zarur bo'lgan alohida shartnomalarni tasdiqlamaydi va ular bo'yicha qarz oluvchi-prinsipalga kredit va/yoki bank kafolati taqdim qilmaydi.

5.1.2 qarz oluvchi/prinsipal manzilida uning moliyaviy ahvoli, hisob yuritishi hisoboti, kredit va kafolatni maqsadli foydalanish masalalari yuzasidan monitoringlar o'tkazadi, zaruriyatga ko'ra bu ishlarga tashqi mutaxassis (ekspert)larni jalb qilishi mumkin.

5.1.3 agar majburiyatlar garov bilan ta'minlanadigan bo'lsa, liniya muddati mobaynida qarz oluvchi-prinsipal mulk garovi bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini qanday bajarayotganini nazorat qilib turadi.

5.1.4 mazkur shartnoma va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda majburiyatlarni muddatidan oldin undirish choralari ko'rishga haqli.

5.1.5 agar kredit uchinchi shaxsning kafilligi yoki kafolati asosida berilgan bo'lsa, qarz oluvchi-prinsipalning muddati kelgan to'lovlarni to'lashga yetarli mablag'i bo'lmagan taqdirda, kafillik yoki kafolat bergan shaxsning hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobidan yoki boshqa mol-mulki hisobidan qarz summasini undirishga haqli.

5.1.6 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

5.1.7 quyidagi xolatlardan biri yuz bergan taqdirda, liniya doirasida kredit va/yoki bank kafolati taqdim qilishni to'xtatadi:

- qarz oluvchi-prinsipal mazkur shartnoma hamda alohida shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq o'z vaqtida bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmaganda;
- qarz oluvchi-prinsipalning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muddati o'tgan debitorlik qarzdorliklari mavjud bo'lganda;
- muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarning mavjud bo'lganda;
- ta'minotning bozor bahosi majburiyatlarni milliy valutada kamida 125 foiz, xorijiy valutada 130 foiz qoplashi uchun yetarli bo'lmaganda;
- kreditning maqsadsiz ishlatilganligi (bunda bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'ining maqsadsiz ishlatilgan qismi muddatidan oldin qaytariladi);
- biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi, belgilangan pul tushumlarining biznes reja ko'rsatkichlariga muvofiq emasligi;
- qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- kreditor/kafil rozilgisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;
- kreditor/kafil rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toraj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, boshqartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha bank talabining bajarilmasligi;
- kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;
- bankka ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;
- kredit mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar kredit shartnomasida kredit ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan kredit mablag'i ta'minoti sifatida garov shartnomasi asosida garovga qo'yilmasligi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki sud tomonidan bank litsenziyasi chaqirib olinganda, ayrim bank operatsiyalari to'xtatilganda, litsenziya amal qilishi vaqtincha to'xtatilishi oqibatida vaziyatning jiddiy o'zgarishi natijasida.

5.1.8 qarz oluvchi/prinsipal kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, kreditor/kafil kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini iste'molchiga yetkazishga haqli.

5.2 Kreditor/Kafilning majburiyatlari:

5.2.1 mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun, qarz oluvchi-prinsipal kredit siyosati talablari doirasida ta'minot taqdim qilib, hujjatlarini belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirib bergandan so'ng, liniya doirasida kredit va/yoki bank kafolati taqdim qilish yuzasidan shartnomalarini tasdiqlab, ular bo'yicha qarz oluvchi/prinsipalga kredit va/yoki bank kafolati taqdim qiladi.

5.2.2 kreditor/kafil qarz oluvchi/prinsipal tomonidan shartnomaga asosan kredit/kafolat bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish

kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit/kafolat bo'yicha garovda turgan mulkni taqiqdand chiqarish va garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestrindan chiqarish choralari to'radi.

5.2.3 bank qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuboradi.

5.2.4 qarz oluvchi/prinsipalni yozma so'rovi bilan, unga zarur ma'lumotlarni amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda taqdim qiladi.

5.2.5 kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelganda, kreditor/kafil qarz oluvchi/prinsipal zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (etti) kalendar kuni davomida qarz oluvchi/prinsipal bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, qarz oluvchi/prinsipalga muddati o'tkazib yuborilgan qarzдорlik yuzaga kelganligi xaqida (taqdim etilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqqan holda) xabar beradi.

5.2.6 Qarz oluvchi/prinsipal kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' to'lagan va ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda kreditni qaytarish jadvalidi yangidan rasmiylashtirishi va Qarz oluvchiga taqdim etilishi. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo'qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi.

5.2.7 Kredit shartnomasining shartlariga qarz oluvchining huquqlarini cheklanishiga va/yoki majburiyatlarini oshirilishiga olib keluvchi o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritmaslik.

6. MAJBURIYATLAR BAJARILISHI

6.1 Kreditor kreditni asossiz ravishda o'z vaqtida ajratmagan taqdirda bank to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarz oluvchiga kreditning kechiktirilgan summasidan 0,2 foiz hajmida penya to'laydi.

6.2 Kafil benefitsiarga kafolat xatini berishni asossiz ravishda kechiktirgan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun kafolat summasining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi.

6.3 Prinsipal kafil tomonidan benefitsiarga to'lab berilgan kafolat summasini bank kafolatlarini alohida shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda qaytarmagan taqdirda, muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi.

6.4 Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanganligi aniqlansa, maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag'i summasiga nisbatan 25 foiz miqdorida bir marotabalik jarima to'laydi.

Qarz oluvchi tomonidan olingan kredit qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda, to'lov muddati o'tgan kundan boshlab, muddati o'tgan kredit summaga nisbatan belgilangan foiz stavkasi 1,5 (bir butun o'ndan besh) barobarga oshirilgan holda hisoblab undiriladi.

Qarz oluvchi kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan hamda ular yuzasidan muddati o'tgan qarzlari yuzaga kelgan hollarda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun bankka muddati o'tgan

kredit qarzдорligiga nisbatan 0,2 foiz, muddati o'tgan foiz to'lovlariga nisbatan 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi.

6.5 Tomonlar majburiyatlarni bajarmaganligi uchun undiriladigan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1 Qarz oluvchi/prinsipalning tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida qarz oluvchi/prinsipalning tomonidan berilgan ariza va unga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda qarz oluvchi/prinsipalning talabi bilan bir ish kuni ichida kredit shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

7.2 Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

7.3 Qarz oluvchining xorijiy valutada kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan kredit bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar, ushbu qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

7.4 Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

7.5 Qarz oluvchi to'lov jadvali asosida kredit qarzдорliklari bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

8. BITIMNING KUCHGA KIRISHI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi bankda, ikkinchi nusxasi qarz oluvchi/prinsipalda saqlanadi. Qarz oluvchi/prinsipal yoki uning vakolatli vakiliga kredit shartnomasi imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etiladi.

8.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

8.3 Shartnomaga kiritilayotgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar yozma shaklda bitimga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi kelishuvni tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

8.4 Qarz oluvchi tomonidan quyidagi holatlardan hech bo'lmasa bittasiga yo'l qo'yilgan taqdirda shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi va bunda kreditor shartnomani, qo'shimcha shartnomani bir taraflama yoki sud tartibida muddatidan oldin bekor qilishi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishi mumkin:

- a) kreditning maqsadsiz ishlatilganligi (bunda bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'ining maqsadsiz ishlatilgan qismi muddatidan oldin qaytariladi);

- b) biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligi, belgilangan pul tushumlarining biznes reja ko'rsatkichlariga muvofiq emasligi;
- c) qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- d) kreditor/kafil rozilgisiz uchinchilarga kafillik yoki kafolat berilishi;
- e) kreditor/kafil rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- f) ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toraj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konjunktura narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha Kreditor/kafil talabining bajarilmasligi;
- g) kredit monitoringdan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;
- h) bankka ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;
- i) kredit va unga hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;
- j) kredit va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;
- k) kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida ekologiya talablarining buzilganligi;
- l) kredit mablag'i hisobiga sotib olingan asosiy vosita, agar kredit shartnomasida kredit ta'minoti sifatida taqdim etish nazarda tutilgan bo'lsa, qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgandan so'ng 10 bank ish kuni davomida ajratilgan kredit mablag'i ta'minoti sifatida garov shartnomasi asosida garovga qo'yilmasligi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

9.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

9.2 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

9.3 Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

9.4 Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

9.5 Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma

shartlarini bajarishda o'ziga og'irib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

10. MAXFIYLIK

10.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

10.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

10.3 Mazkur qoida shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 (uch) yil davomida amal qiladi.

10.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq xajmda qoplaydi.

10.5 Kafil mazkur shartnomaga asosan o'z huquq va manfaatlari himoya qilish, talab qilish maqsadida, prinsipal kafilga o'zi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini mazkur shartnomaga asosan bildirgan hisoblanadi.

10.6 Prinsipal kafilga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida kafilga taqdim etgan o'zining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kafilning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi.

11. FORS-MAJOR

11.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

11.2 Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

11.3 Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (sms va mms xabarlar bundan mustasno).

11.4 Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

11.5 Yuzaga kelgan fors-major holatlari bartaraf bo'lgandan so'ng, mazkur shartnoma shartlari to'liq o'z kuchiga ega bo'ladi.

12. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

12.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

12.2 O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

12.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

12.4 Tinch yo‘l bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda filial/bo‘linma joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

13. TARAFLARNING QAYD ETISH MA’LUMOTLARI VA IMZOLARI

--	--